

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- Jami bajarilgan qurilish ishlari
- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, Andijon viloyatida jami 15 111,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	15 111,4	113,8
Andijon shayar	5 508,5	117,5
Xonobod shayar	196,5	112,6
Oltinko'l tumani	548,5	115,7
Andijon tumani	680,9	118,5
Baliqchi tumani	374,1	112,8
Bo'ston tumani	445,8	113,2
Buloqboshi tumani	300,5	111,7
Jalaquduq tumani	311,4	112,2
Izboskan tumani	465,5	115,2
Ulug'nor tumani	153,2	115,2
Qo'rg'ontepa tumani	327,7	110,6
Asaka tumani	449,9	113,3
Marhamat tumani	289,8	116,2
Shahrixon tumani	623,8	111,8
Paxtaobod tumani	439,2	111,6
Xo'jaobod tumani	488,0	125,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 81,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,0 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	444,3	661,2	28,3
o'sish sur'ati, % da	142,3	116,3	38,8
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	6 667,9	1 475,8	704,3
o'sish sur'ati, % da	117,8	105,6	121,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	5 129,6	-	-
o'sish sur'ati, % da	109,5	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 133,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ni tashkil etgan, umumiy hajmdagi ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 58,6 % ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil etgan holda 8 848,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 33,9 % ni yoki 5 129,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,5 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Andijon viloyati	1 133,8	8 848,0	5 129,6	132,2	115,8	109,5
Andijon shayar	411,8	4 723,0	373,7	117,1	121,1	111,4
Xonobod shayar	-	177,8	18,7	-	114,2	102,5
Oltinko'l tumani	12,5	342,8	193,3	36,9	110,5	123,0
Andijon tumani	205,2	331,1	144,7	169,9	106,6	101,1
Baliqchi tumani	4,2	247,5	122,5	75,3	112,3	115,8
Bo'ston tumani	17,4	361,4	67,0	752,2	109,9	106,5
Buloqboshi tumani	44,7	165,9	89,9	224,9	93,8	124,3
Jalaquduq tumani	67,2	86,9	157,3	144,3	117,6	100,0
Izboskan tumani	2,2	379,9	83,4	38,2	117,5	111,0
Ulug'nor tumani	8,1	96,2	48,8	40,5	131,0	123,8
Qo'rg'ontepa tumani	7,2	150,9	169,7	92,7	101,8	120,9
Asaka tumani	11,6	158,6	279,7	75,4	122,6	110,8
Marhamat tumani	3,5	153,6	132,7	69,5	123,7	110,3
Shahrixon tumani	2,8	489,0	132,0	32,0	114,4	108,5
Paxtaobod tumani	3,4	185,8	250,0	46,7	120,5	107,6
Xo'jaobod tumani	105,3	291,1	91,7	524,3	101,3	111,9

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Bo'ston tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 752,2 %), Xo'jaobod tumani (524,3 %) va Buloqboshi tumanida (224,9 %) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

M.Sotvoldiyev
74 224-29-37 (6020)

Manzil:

